

## ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA MULOQATCHANLIK VA TASHKILOTCHILIK XUSUSIYTLARINING TADQIQ ETILISHINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

*Rustamova Go'zal Xolmuhammad qizi*

*Namangan davlat universiteti Psixologiya (faoliyat turlari) yo'nalishi*

*Ikkinchi bosqich magistanti*

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada, hozirgi kunda ko'plab insonlarning faol ijtimoiy hayotga kirishib ketishida muloqotchanlik va tashkilotchilik xususiyatlarining o'rni. Shu bilan birgalikda maqolada umumiy olingan ma'lumotlarga asoslanib bir qancha yechimlari ham keltirib o'tilgan.

**Abstract:** This article highlights the role of communication skills and organizational skills in the active business life of many people today. At the same time, several solutions are presented in the article based on the general information.

**Аннотация:** В этой статье освещается роль коммуникативных навыков и организаторских способностей в активной социальной жизни многих людей сегодня. При этом в статье представлено несколько решений исходя из общей информации.

**Kalit so'zlar :** Ilk o'spirinlik, tashkilotchilik, muloqot

**Keywords:** Early adolescence, communication, organization

**Ключевые слова:** Ранний подростковый возраст организация коммуникация

### KIRISH

Keyingi paytlarda yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash, ularni o'zini o'zi uddalashga o'rgatishdan boshlamoq zarur. Shaxsning o'z faoliyatini va xulq-atvorini shaxsiy xohish-irodasiga bo'ysundirish mustaqil fikrlarni barqarorlashtiradi, ko'zlangan maqsadni amalga oshirishga puxta zamin hozirlaydi, har xil qiyinchiliklar oldida matonat, sabr-toqat, tuyg'ularini namoyish etishga chorlaydi. Ilk o'spirinlik davridagi bolalarning muloqotchanlik va tashkilotchilik xususiyatlarini o'rganish hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Asosiy qism: shaxs doim ijtimoiy institutlarga ketma-ketlikda kirib boradi. Agar unda muloqotchanlik va tashkilotchilik xususiyatlari past darajada bo'lsa, u holda bu shaxs boror bir notanish muhitda o'ziga o'zi ishonmaslik holati, o'ziga past baho berish holati, o'ziga nisbatan tahdid yuqori bo'lib ketishi mumkin. Shu sababli ilk o'spirinlarda muloqotchanlik va tashkilotchilik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'smirlikdan keyingi navbatdagi bosqichni o'spirinlik davri deb bir bosqich hisoblashimiz xam mumkin, lekin hozirgi ko'pchilik psixologlar klassifikatsiyasi

bo'yicha ikki bosqichga ajratishimiz xam mumkin. Avval o'smirlikdan keyingi bosqichni o'smirlik, keyingisi ilk o'spirinlik yoki yigitlik davri deb aytilardi—da 14 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan davrlarni qamrab olar edi. Hozir ko'pchilik psixologlar 15–18 yoshni qamrab oladigan davrni ilk o'spirinlik deb atashni ma'qul ko'rmoqdalar, bu umumta'lim maktabining 8–10 sinf yoshiga to'g'ri keladi. B. Elkoninning va N. Leontevning takidlashicha, o'quv kabi faoliyat ilk o'spirinlik davrida yetakchi faoliyat hisoblanadi. Bu davrda o'quvchi jismonan baquvvat, o'qishni tugatgach mustaqil mehnat qila oladigan, oliy ta'limda o'zini sinab ko'radigan imkoniyatga ega bo'ladi. G'oziyev- “ İlk o'spirinlarning o'zini o'zi tarbiyalashi maktabdagi jamoatchilik tashkilotlarining, pedagog jamoasining tarbiyaviy ta'siri doirasida amalga oshishi shart”,- deb ta'kidlab o'tgan.

Mazkur davrning yana bir xususiyati – mehnat bilan ta'lim faoliyatining bir xil ahamiyat kasb etishidan iborat. Ijtimoiy hayotda faol qatnashish, ta'lim xarakterining o'zgarishi, yigit va qizlarda ilmiy dunyoqarash, barqaror e'tiqodning shakllanishiga, yuksak insoniy xis-tuyguning vujudga kelishiga, bilimni o'zlashtirishga ijodiy yondoshuv kuchayishiga olib keladi Tashkilotchilik faoliyati amalda ob'yekt (boshqariluvchi) va sub'yekt (boshqaruvchi) mavjud bo'lgan paytda, pirovard maqsadni amalga oshirish jarayonida kechadi. Ko'rinib turibdiki, tashkilotchilik tor ma'noda bir kishining ish jarayonida boshqa kishilarni boshqarishi, ularning amaliy faoliyatiga rahbarlik qilishi, keng ma'noda esa, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, muassasalar va davlatlarning ana shunday faoliyati tushuniladi. Tashkilotchilikning alohida faoliyat ekanligi boshqarish jarayonini ko'zdan kechirganimizda aniq ko'rinadi Muloqot — odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o'zaro aloqaga doir) jihati hisobga olinadi. Ba'zi insonlar kasb tanlashda xatolikka yo'l qo'yadi, o'sha kasb bo'yicha ishlash oqibatida unda zo'riqish, charchash, asabiylik holatlari yuzaga keladi, shuning uchun kasb tanlashda adashmaslik, o'zi qiziqadigan kasbida faoliyat yuritishlari lozim. Har bir kishining o'z «Men»i atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida shakllanadi. Shaxsning hayot yo'llari awal oilada, bog'cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya'ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, ayrim hollarda esa qoniqmaslikni his qilamiz. Pedagogik muloqot bu — muloqot turlaridan biri bo'lib, pedagogik faoliyatda muhim o'rin tutadi. Ba'zan muloqotdagi muvaffaqiyatsizliklar yoshlarni benuqsonroq, himoyalanganroq bo'lish uchun o'zidagi eng yaxshi xislatni yashirishga, buzishga majbur etadi. Erta o'smirlik paytida yigit va qizlar yakkalik holatini boshdan kechiradi. Ular his-tuyg'ularini hech kimga aytishmaydi. O'zi haqidagi va atrofdagi kishilar haqidagi

axborot — muloqot usullarini va mazmunli muloqotni tashkil etishga intilishni belgilab beradi. Buning uchun ruhiy tusdagi muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Har bir kishiga xos

Xulosa o'rnida, muloqotchanlik va tashkilotchilik xusiyatlarini takomillashtirishda ajoyib kishilar bilan uchrashuvlar, kinofilmlar namoyishi, teatrda va televideniya spektakllar ko'rish juda yaxshi tashkil etilishi mumkin. Shuningdek, o'smirlar tarbiyasiga o'yinlar, qiziqarli mashg'ulotlar xam muxim o'rin tutadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Rivojlanish psixologiyasi Pedagogik va psixologiya , Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, U.Abdullaye M.X.Xolnazarova
2. "Psixologiya yosh davrlari psixologiyasi " Toshkent "O'qituvchi" 1994 E. G'oziyev
3. Muloqot psixologiyasi TOSHKENT «TURON-IQBOL» 2006 M.A. MAXSUDOVA.
4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. R.A.MAVLONOVA
5. Internet saytlari www..com
6. Umumiy psixologiya P.I.Ivanov, M.E.Zufarova O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAM IYATI NASHRIYOTI TOSHKENT - 2008